

FUQAROLIK SUDLOV FAOLIYATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING O'RNI VA UNI QO'LLASHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Sotvoldiyeva Shukrona Shukur qizi

Farg'ona yuridik texnikumi

Davlat huquqiy faoliyati yo'nalishi II bosqich o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18680558>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik va iqtisodiy protsessda mediatsiya institutining o'rni, mediatsiya tushunchasi, mediatsiyaning asosiy maqsadi va rivojlanish tarixi shuningdek, fuqarolik huquqiy nizolarda mediatsiyani qo'llashning protsessual xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Mediatsiya, mediator, mediatsiyaning prinsiplari, mediatsiya shartnomasi, fuqarolik huquqiy nizo, hakamlik sudi, integratsiya.

THE ROLE OF THE MEDIATION INSTITUTION IN THE ACTIVITY OF CIVIL JUSTICE AND THE PROCEDURAL FEATURES OF ITS APPLICATION

Abstract. This article provides detailed information on the role of the institution of mediation in civil and economic proceedings, the concept of mediation, the main purpose of mediation and the history of its development, as well as procedural features of the use of mediation in civil legal disputes.

Key words: Mediation, mediator, principles of mediation, mediation agreement, civil legal dispute, arbitration court, integration.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar rivojlanib borar ekan, bozor munosabatlarining subyektlari o'rtasida turli nizolar vujudga kelishi tabiiy holat sanaladi. Amaliyot ham oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqayotgan nizoli holatlar kam emasligini ko'rsatmoqda.

Bu kabi nizolashayotgan taraflar masalaning yechimini topish maqsadida an'anaviy yo'lni tanlashga, ya'ni sudga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham chinakam bozor mexanizmlarining joriy qilinishi va amalga oshirilishi bozor munosabatlarining har bir sohasini tartibga soluvchi zarur huquqiy zamin yaratilishini talab qiladi. Avvalo mediatsiya tushunchasiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, ko'pchilikka tanish bo'lib ulgurgan bu so'z lotin tilidagi "mediare" so'zidan olingan bo'lib, "vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish" degan ma'nolarni bildiradi.

Mediatsiya – bu bir birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs – mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo'li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir. Dastlab ilk marotaba Vavilon, Qadimiy Gresiya va Qadimiy Rimda mediatsiyani qo'llash qayd etilgan. Rim huquqida Yustinian kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI-asr) bahs- munozaralarni hal qilish uchun vositachilik tan olingan. Vositachilarga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lishgan.

Ularni ruhoniylar bilan bir qatorda qo'yishgan.

Mediatsiya texnologiyasi asosan savdoda qo'llanilgan.

BMT ustavining 33-moddasida mediatsiya (vositachilik) nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan¹. Shuningdek, Yevropa parlamenti va kengashining 2008-yilgi 52-direktivasi fuqarolik va tijorat nizolarida mediatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "taflar boshlab bergan yoki sud tomonidan tayinlangan yoxud milliy qonunchilik bilan belgilanganidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taflarning nizoni hal etish to'g'risida kelishuvga erishish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat etish jarayonidir".

Mediatsiyaning maqsadi – nizolashuvchi taflarning nizolarini mustaqil, o'zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko'maklashishdan iborat bo'lib, uning asosiy tamoyillariga ixtiyoriylik, taflarning tengligi, betaraflik, mediatorning xolisligi, maxfiylik kabilar kiradi. Mediatsiya jarayoni muzokaralardan iborat bo'lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo'lgan irodasi va intilishi, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog'liqdir.

Mediatsiya suddan tashqari tartibida, bahs-munozarani sud tartibida ko'rib chiqish jarayonida, sudning qaror chiqarish uchun zalni tark etishidan oldin. Agar gap Hakamlik sudi haqida ketayotgan bo'lsa, shakl xuddi shunday bo'ladi. Mediatsiyada ishtirok etish fakti aybga iqrar bo'lishning isboti hisoblanmaydi.

Mediatsiyaga nisbatan jamiyatda vujudga kelgan ehtiyoj o'tgan asrda yangi kasb – mediatorlarning shakllanishiga olib kelgan. Mediatorlar dalillarni tekshirmaydi va taflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, aksincha, ularning asosiy vazifasi – taflar o'rtasida bir-birlarini tushunishga, taflar uchun maqbul shartlarda muammoni hal etishimkoniyatlarini izlash va hal etishga ko'maklashishdan iboratdir. Mediatsiya – majburiy kuchga ega bo'lmagan, taflarning ixtiyoriyligiga asoslangan konfidensial jarayon. U nizolashayotgan taflarning ixtiyoriga ko'ra tanlab olingan betaraf uchinchi shaxsning vositachiligida shartnomaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizoni o'zaro murosa – yarashuv yo'li bilan huquqiy asosda hal etish jarayonidir. Betaraf uchinchi shaxs – mediator.

Ko'plab davlatlarda mediatsiya instituti huquqiy voqeligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX-asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan. Mediatsiyaning yanada rivojlanishi va dunyo bo'ylab keng yoyilishiga hozirgi Amerika modeli ulkan ta'sir ko'rsatdi. Jahonning aksariyat davlatlarida nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri mediatsiya qonun bilan tartibga solingan bo'lib, nizolarning asosiy qismi sudga murojaat etilmasdan muzokaralar yo'li bilan hal qilib kelinmoqda.

Nizolashuvchi shaxslar mediatorni o'zlari tanlaydilar va mediatsiya jarayoniga ixtiyoriy kirishadilar. Sudda taflar sudyani tanlay olmaydi, sudga esa faqat yashash joylari bo'yicha murojaat qilishga majburlar; agar sudning vazifasi taflarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo'lsa, mediatsiya taflarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli xil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan; sudda nizolashayotgan taflar sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirlarida ham uni

¹ Qarang. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi.

bajarishga majburlar.

Mediatsiyada barcha qarorlar faqat taraflarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar, mediatsiya sud jarayoniga nisbatan maxfiy tarzda o'tkaziladi va har bir taraf istagan vaqtida uni davom ettirishdan bosh tortishi mumkin, sudda esa aksincha, muzokaralarni istalgan vaqtda tugatib bo'lmaydi, jarayon ham oshkora bo'ladi; sudlarning ish hajmi shu darajada yuqoriki, ishlarni ko'rib chiqish bir necha oy va undan ortiq vaqtga cho'zilib ketadi, mediatsiya jarayoni esa juda qisqa muddatda ham yakunlanishi mumkin; mediatsiya sud jarayoniga qaraganda har tomonlama tejamli bo'ladi. Mediatsiya sud jarayonining muqobil usuli bo'lib, sudga nisbatan qator farqlarga ega: mediatsiyada taraflar istaganlaricha barcha masalalarni bemalol muhokama qiladilar; sud jarayoni protsessual qonunlar doirasida o'tkaziladi, qaror faqat qonunga asoslanib qabul qilinadi, mediatsiyada esa qarorni taraflarning o'zlari qabul qiladilar.

Mediatsiya nazariy jihatdan nizolarni hal qilishning arzon va tezkor shakli hamda sud jarayoniga norasmiy alternativ hisoblanadi. Mediatsiya nizolarni hal qilishning boshqa usullari, xususan nizolarni sud tartibida hal qilishdan o'zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi.

Jumladan, nizolarni hal qilishning muqobil protsedurasi sifatida, mojaro ishtirokchilariga nizolarni hal qilish variantlarini mustaqil ravishda belgilash huquqini berish kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, nizo tomonlari moliyaviy mezonlari, raqobatbardoshligi, bozor narxlari va ishbilarmonlik obro'sini hisobga olgan holda ularning tijorat ehtiyojlaridan kelib chiqib foydali yechim to'g'risida kelisha olishlari mumkin. Mediator va sudyalarning o'rtasidagi farq tomonlarning da'volarini va ularning huquqlarini belgilovchi omillarni tahlil qilish uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan muayyan standartlar yoki qoidalarining yo'qligidir.

Mediatsiyaning yana bir afzalligi uning maxfiyligi, shuningdek vositachining tomonlarga o'zlariga mos keladigan har qanday yechimni ishlab chiqishda yordam berish huquqidir. Mediatsiya shartnomasi nizoli tomonlarning o'zaro roziligi bilan tuziladi. Nizoni shu tarzda hal qilish to'g'risidagi band nizoni muzokaralar jarayonida hal qilishning eng qulay va sodda variantidir. Mediatsiyadan foydalangan holda muzokaralar nizo yuzaga kelgan bosqichda, shuningdek nizoli tomonlar nizolarni hal qilishning boshqa jarayonlariga, shu jumladan sud protseduralariga kirganda ham foydalanishlari mumkin. Faoliyat ko'rsatkichlariga ko'ra, nizolarni mediatsiya usuli bilan hal qilish nizoning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda, asosan, mediatsiya, hakamlik sudlari va apellatsiya kengashi sudgacha nizolarni hal qilish vositasi bo'lib bormoqda.

O'zbekistonda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan

nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etmoqda.

Ko'p asrlar davomida mediatsiya davlatlararo aloqalarda, oilalar, qo'shnilar, siyosiy partiyalar, professional, diniy va boshqa jamoatchilik guruhlari o'rtasida hamda parlamentda yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Bizning davrimizda mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullarning ahamiyati nihoyatda kattadir. U nafaqat oila va mehnat nizolarida, balki har qanday darajadagi mulkiy munosabatlarda, jumladan, kompaniyalar, korporatsiya menejmenti va uning aksiyadorlari o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro huquq sub'ektlari orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda 2018-yili fuqarolik-huquqiy nizolarni sudga qadar hal etishning muqobil usullaridan biri bo'lgan mediatsiya institutini joriy etish ko'zda tutilgan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mediatsiyaning asosiy maqsadi nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o'zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko'maklashishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirishga e'tibor qaratilgan².

Mediatsiya har qanday faoliyat turi kabi nizolarni mediator yordamida hal etishni tashkil etish va hal etish tartibi to'g'risidagi jamoatchilik fikri va g'oyalarini ifodalovchi muayyan prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Shubhasiz, mediatsiya prinsiplari katta ahamiyatga ega. Birinchidan, prinsiplar mediatsiya faoliyatini tartibga solish uchun asos bo'ladi va mediatsiyaning yanada rivojlantirishni oldindan belgilab beradi.

Ikkinchidan, prinsiplarni belgilash mediatsiyaning yurisdiksiyadan tashqari faoliyatining mustaqil turi sifatida ajratish, mediatsiyaning tashkil etish, yuritish qoidalarining sifat jihatidan o'ziga xosligini va huquqiy tartibga solish xususiyatlarini huquqiy nizolarni hal etishning yurisdiksiya usullari bilan solishtirganda aniqlash imkonini beradi.

Mediatsiya prinsiplari dastlab faoliyat prinsiplari sifatida shakllanganligini inobatga olsak, ularni shu nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin. Demak, mediatsiya prinsiplari deganda huquqiy nizolarni hal etishning yurisdiksiyadan tashqari usuli sifatida mediatsiyaning tashkil etish va o'tkazishning asosiy qoidalarini tushunish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi O'RQ-482-sonli "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunida mediatsiyaning maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilangan³.

Shubhasiz, mediatsiya prinsiplari katta ahamiyatga ega.

² Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

³ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-son Qonuni.

Ushbu prinsiplar, birinchidan, mediatsiya faoliyatini o'z-o'zini tartibga solishning asosi bo'lgan mediatsiyani yanada rivojlantirishni oldindan belgilab beradi, shuningdek mediator ishtirokida tomonlarni yarashtirish institutini takomillashtirishda ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, prinsiplarni aniqlash mediatsiyani yurisdiksiyadan tashqari faoliyatning mustaqil turi sifatida individuallashtirish, uni tashkil etish, yuritish qoidalarining sifat jihatdan o'ziga xosligini va huquqiy tartibga solish xususiyatlarini huquqiy nizolarni hal ejtishning yurisdiksiya usullari bilan solishtirganda aniqlash imkonini beradi. Nihoyat, mediatorning taraflar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy faoliyati negizida mediatsiya prinsiplari yotadi. Bularning barchasi mediatsiya prinsiplarini belgilash, tizimlashtirish va o'rganishni taqozo etadi.

Fuqarolik protsessida mediatsiya institutining istiqbollarini tahlil qilib, I.V.Reshetnikovaning ta'kidlashicha, mediatsiyani rivojlantirish quyidagi tamoyillarga mos kelishi kerak, xususan ixtiyoriylik, maxfiylik, tomonlarning tengligi, mediatorning betarafligi, beg'arazlik (mediatorga murojaat qilish uchun tomonlarning kelishuvi asos bo'lib xizmat qiladi, tegishli ravishda xizmatlar uchun to'lov shartnoma asosida ham amalga oshiriladi). Bundan tashqari, muallif mediatsiyaning boshlang'ich nuqtasi sifatida uning muqobil (nizoni hal etishning sud tartibiga) xususiyatini ta'kidlab, mediatsiya suddan tashqarida amalga oshirilishi va protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinmasligini ta'kidlaydi⁴.

V.T.Konusovaning fikricha, fuqarolik protsessining prinsiplari fuqarolik nizolarini hal etishning nodavlat tartib-qoidalariga to'liq tatbiq etilmasa-da, bu huquqiy hodisalarga ma'lum prinsiplar, masalan qonuniylik, ixtiyoriylik prinsiplari birdek xosdir. Shu bilan birga, bu prinsiplarning nodavlat tartib-qoidalariga nisbatan ma'nosi o'z aksini topib, turli mazmun bilan to'lib borishiga shubha yo'q⁵.

S.I.Kalashnikovaning fikriga qo'shilgan holda, mediatsiya prinsiplarining ikkita guruhini ularning funksional maqsadlariga qarab ajratish to'g'ri ko'rinadi: 1) mediatsiyani tashkil etish xususiyatlarini va uning ishtirokchilari holatini tavsiflovchi prinsiplar (tashkiliy prinsiplar) va 2) mediatsiyani amalga oshirish tartibini tavsiflovchi prinsiplar (taomil prinsiplari)⁶.

Birinchi guruhga mediatsiyaning ixtiyoriyligi va betarafligi kabi prinsiplar, ikkinchi guruhga tomonlarning maxfiyligi, mustaqilligi, hamkorligi va teng huquqliligi kabi prinsiplar kiradi.

Yuqoridagi tasnif mediatsiya prinsiplarini tizimlashtirish, ularning o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligini aniqlash imkoni beradi. Prinsiplarning tizimli tahlili tashkil etish va o'tkazish xususiyatlarini, mediatsiya tartibini, uning nizolarni hal qilish va hal qilishning boshqa usullaridan farqlarini chuqurroq tushunish, shuningdek mediatsiya tartibini yurisdiksiya

⁴ Решетникова И.В. Перспективы развития посредничества в российском праве // Российский юридический журнал – 2005. № 1. – С. 99.

⁵ Конусова В.Т. Негосударственные процедуры урегулирования гражданско-правовых споров. Дисс. ... на соискание ученой степени кандидата наук. Республика Казахстан. Астана. – 2010. – С.149.

⁶ Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции. Дисс. на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург. 2010. – С.32.

organlar faoliyatiga intergratsiyalashning istiqbollarini o'rganish imkonini beradi.

O'zining eng umumiy ko'rinishida maxfiylik prinsipi, agar boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, mediatsiya protsedurasining fakti, shuningdek mediatsiya jarayonida foydalanilgan ma'lumotlar, shu jumladan og'zaki ma'lumotlar va hujjatlar oshkor etilishi mumkin bo'lmagan qoidadir.

Xulosa o'rnida aytganda, har qanday yangilik singari mediatsiya instituti ham amalda sinab ko'rilganidan keyingina uning ijobiy jihati, afzalliklari aniq namoyon bo'ladi.

O'ylaymizki, mediatsiya to'g'risidagi qonun jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan fuqarolik, mehnatga oid va iqtisodiy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish hamda taraflarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Aynan fuqarolik ishlarida mediatsiyani qo'llash keng imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi
3. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son;
4. Решетникова И.В. Перспективы развития посредничества в российском праве // Российский юридический журнал – 2005. № 1. – С. 99
5. Конусова В.Т. Негосударственные процедуры урегулирования гражданско-правовых споров. Дисс. ... на соискание ученой степени кандидата наук. Республика Казахстан. Астана. – 2010. – С.149
6. Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции. Дисс. на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург. 2010. – С.32

Internet saytlari

7. www.lex.uz
8. www.norma.uz
9. www.huquqiportal.uz